

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

**TUPROQ BIOGEOKIMYOSI – BIOSFERANING BARQAROR
RIVOJLANISHI VA MUHOFAZASI**

**xalqaro ilmiy
anjuman materiallari**

TO'PLAMI

СБОРНИК

**материалов международной
научной конференции**

**БИОГЕОХИМИЯ ПОЧВ – УСТОЙЧИВОЕ РАЗВИТИЕ И
ОХРАНА БИОСФЕРЫ**

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

Q.A.Davronov, D.Q.Ibragimova, S.B.Topvoldiyeva, D.B.Shermuxammedova	
"Avangard start", "Gulliver" "Antikolorad maks" preparatlarini g'o'za parvarishida qo'llash usullari va muddatlari	296
Sh.Y.Eshpulatov, Sh.E.Yursunova	
Tokzor tuprog'ini chuqur haydash va o'g'itlashning uzum hosildorligi va sifatiga ta'siri.....	300
Ш.И.Маматожиев, А.Ашуралиев	
Vliyanie tekhnologii do possevnoi obrabotki na agrofizicheskie svoistva pochyv.....	305
B.K.Boboyev, M.B.Mahammadaliyev	
Chorychilikda ozuqa bazasini yaratishda qo'shimcha intensiv usulda gidropnika texnologiyasi asosida ko'k ozuqa yetishtirish samaradorligi.....	310
S.Sh.Kabilov, A.X.Ibragimov	
Issiqxonada qishloq xo'jalik ekinlarini yetishtirishda smart texnologiyasining o'rni va ahamiyati	314
Ш.И.Маматожиев, А.Ашуралиев	
Coderzhanie vлаги в зависимости от технологии предпосевной обработки почвы.....	317
M.T.Davlatova	
G'alla zararkunandalari va ularga qarshi kurash choralari	321
S.Sh.Kabilov, M.Sh.Mo'sinjonova	
Issiqxonada sabzavot ekinlari yetishtirishning resurstejamkor texnologiyasining ahamiyati va samaradorligi	325
O.O.Mamatqulov	
Fermer xo'jaligida suvdan foydalanish rejasini ishlab chiqish	328
H.N.Atabayeva, X.A.Idrisov	
Mosh (Phaseolus aureus Piper) navlaring quruq modda shakllanishiga tashqi omillarning ta'siri	332
D.M.Xoldarov, A.O.Sobirov, S.A.Ibrohimova, D.F.Karimova	
Gumus va oziqa elementlarining tuproq unumdorligidagi ahamiyati to'g'risida	335



UO'K: 636.086.31.

**CHORVCHILIKDA OZUQA BAZASINI YARATISHDA QO'SHIMCHA INTENSIV USULDA
GIDROPONIKA TEKNOLOGIYASI ASOSIDA KO'K OZUQA YETISHTIRISH SAMARADORLIGI**

**ЭФФЕКТИВНОСТЬ ВЫРАЩИВАНИЯ ЗЕЛЕНЫХ КОРМОВ НА ОСНОВЕ
ТЕХНОЛОГИИ ГИДРОПОНИКИ ДОПОЛНИТЕЛЬНО ИНТЕНСИВНЫМ МЕТОДОМ ПРИ
СОЗДАНИИ КОРМОВОЙ БАЗЫ В ЖИВОТНОВОДСТВЕ**

**EFFECTIVENESS OF GROWING GREEN FOOD BASED ON HYDROPONICS
TECHNOLOGY USING AN ADDITIONALLY INTENSIVE METHOD IN CREATING A FEED
BASE IN ANIMAL HUSBANDRY**

Boboyev Bahromjon Kenjayevich¹ ¹Farg'ona davlat universiteti, q.x.f.n., dotsent.Mahammadaliyev Mahmudjon Botirjon o'g'li² ²Farg'ona davlat universiteti, tayanch doktorant.

Annotatsiya

Ushbu magolada Respublikamizda chorvachilikning hozirgi axvoli va ularni mahsuldarligini oshirishda oziqlantirishning ahamiyati bayon etilgan. Chorvachilikdagi eng dolzarb muammolardan biri bo'lgan ozuqa bazasini mustaxkamlash va ozuqalarning sifatli va kam xarajat talab qiladigan turlaridan oqilona foydalanish, bu borada intensiv gidropnika usulida yetishtirilgan ko'k ozuqalardan foydalaniш muxim ahamiyatga ega.

Аннотация

Описано современное состояние животноводства в наших трех республиках и значение кормления в контроле за их продуктивностью. Один из самых прибыльных продуктов в животноводстве, производство источников энергии в специализированном производстве и передача ресурсов через окружающую среду в виде высококачественных и недорогих продуктов, эта интенсивная гидропоника имеет потенциал для получения синего дохода.

Abstract

The current state of livestock breeding in our three republics and the importance of feeding in controlling their productivity are described. One of the most profitable products in animal husbandry, the production of energy sources in specialized production and the transfer of resources through the environment in high-quality and low-cost products, this intensive hydroponics has the potential to produce blue income.

Kalit so'zlar: Gidroponica, intensiv, kunjara, oqsil, don, hazmlanish, silos, metabolik energiya.

Ключевые слова: Гидропоника, интенсив, шрот, протеин, зерно, пищеварение, силос, метаболическая энергия.

Key words: Hydroponics, intensive, protein, grain, digestion, silage, metabolic energy.

KIRISH

Chorva hayvonlarini to'yimli va sifatli ozuqa bilan ta'minlash hozirda dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Chorva hayvonlarning asosiy ozuqalari hajmli ozuqalar bo'lib, ularni yetishtirish katta yer maydolari va ko'p xarajatni talab qiladi. Intensiv gidroponica usulida donlardan ko'k ozuqa yetishtirishning asosiy avzalligi esa ozuqa yetishtirishda yer maydoni talab etilmaydi. Bu ozuqani tuproqsiz yetishtirish imkonini beradi. Respublikamizdag'i chorva hayvonlarning asosiy qismi axoli xonardonlarida boqilib ko'paytirilib kelinmoqda. Chorvachilik xo'jaliklarida bo'lgani kabi axoli xonardonlarida ham chorva hayvonlarini sifatli va shu bilan birga arzon ozuqa bilan ta'minlash dolzarb mavzu hisobanadi. Ayni vaqtida axoli xonardonlaridagi qoramollar, qo'y-echkilar va parrandalarning asosiy ozuqalari bug'doy somoni, beda pichani, makkajo'xori silosi, bug'doy va makkajo'xori doni, kunjara va bug'doy kepagi hisoblanadi. Bu ozuqalarning narxi yil davomida

4-SHO'BA: TUPROQSHUNOSLIK, AGROKIMYO VA TUPROQ BIOGEOKIMYOSINI O'QITISHNING ZAMONAVIY MUAMMOLARI

mavsumga bog'liq xolda o'zgarib borishi mumkin. Shunday sharoitda ayniqsa qish va bahor mavsumlarida chorva hayvonlarini arzon ozuqa bilan ta'minlash masalasi dolzarb muammo bo'lib kelmoqda.

Chorvachilikda xarajatlarning yarmi ozuqaga to'g'ri kelganligi sababli, ozuqa ishlab chiqarishda arzon texnologiyalarni keng qo'llash va ozuqa sifatini oshirish soha samaradorligini oshirishning asosiy manbalari hisoblanadi. Shu sababdan qishloq xo'jaligi hayvonlari uchun sifatli ozuqa ishlab chiqarishni ko'paytirish yo'llarini izlash oldin ham dolzarb muammolardan biri bo'lgan va hozir ham shunday bo'lib qolmoqda. Qoramollar uchun ozuqa ratsionining ulardag'i metabolik energiya va hazm bo'ladijan oqsil miqdori bo'yicha nomutanosibligi ozuqaning sezilarli darajada ortiqcha sarflanishiga va chorvachilik mahsulotlari tannarxining oshishiga olib keladi. Shuningdek, aholini etarli miqdorda qishloq xo'jaligi, jumladan chorvachilik mahsulotlari bilan ta'minlash mamlakatimizning agrar siyosatini ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. Shu munosabat bilan insonning to'g'ri ovqatlanishi uchun zarur bo'lgan chorvachilik mahsulotlarini etarli miqdorda etishtirish, ozqaviyligi va to'yimiligi yuqori ekinlarni tanlab olish, ularning mahsulordigini oshirish, kam xarajat talab qiladigan yangi texnologiyalarni ishlab chiqish orqali chorvamollari ozuqa bazasini mustaxkamlash bilan uziy bog'liqdir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Ozuqa bazasini yetishtirish uchun sug'oriladigan yer maydonlari yetishmovchiligi mavjud bo'lgan tumanlarda go'sht va sut mahsulotlariga bo'lgan iste'mol talabini to'liq qondirish maqsadida kooperatsiya usulida go'sht va sut mahsulotlarini yetishtirish va qayta ishlashni yo'lga qo'ygan xo'jalik yurituvchi subyektlarga Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlar chegaralari doirasida bir tumanda kooperatsiya usulida go'sht va sut mahsulotlarini yetishtirishni tashkil etish hamda boshqa tumanda ozuqa ekinlarini yetishtirish uchun elektron onlayn aukzion savdolari asosida sug'oriladigan yerlar ajratishni ta'minlasin. Bunda, kooperatsiya usulida faoliyat olib boruvchi subyektlarga mazkur qarorda belgilangan barcha imtiyozlar qo'llaniladi.[1]

Gidroprik yashil ozuqa – bu boshqoli va dukkakli ekinlar donidan ozuqaviy eritmada tuproqsiz yoki sun'iy sharoitda o'stirilgan, o'simlik kurtaklarining ildiz qatlami bilan yashil massasidir. Yashil maysani bug'doy, arpa, javdar, no'xat, makkajo'xori va boshqalardan shuningdek dukkakli va boshqoli ekinlar aralashmasidan yetishtirish mumkin.[2]

Hozirda Respublikamizda yuqori samarali jadal usulida avtomatlashtirilgan gidroprik texnologiyasi asosida chorva ozuqasini ishlab chiqarish uskunalarini ishlab chiqaruvchi MCHJ "INTEXNOL" yangi innovatsion texnologiyasi asosida chorvachilikni rivojlantirish uchun yashil ozuqa yetishtirish uskunalarini ishlab chiqaruvchi korxona faoliyat ko'rsatib kelmoqda.[3]

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Gidropnika texnologiyasini chorvachili fermer xo'jaliklarida yoki uy sharoitida tashkil qilish uchun metalldan yoki yog'ochdan qatorlarga bo'lingan uskuna yasaladi. Har bir qatorga yel'm doska qo'yiladi va tozalangan donlar shu doska yuzasiga yoyiladi.



1-rasm.Gidropnika usulida ko'k ozuqa yetishtirish uchun bug'doy donini tayyorlash.

Gidropnika usulida ko'k ozuqa yetishtirish uchun dastlab yetishtirladigan donlar tozalanadi (mayda toshlar, siniq donlar, qipiqlar). Agarda siniq donlar miqdori ko'p bo'lsa keyinchalik unish vaqtida ko'k massa mog'orlashi mumkin, bu esa ozuqaning sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Donlar tozalangandan so'ng suvda 24 soat davomida ivitiladi. So'ngra ivitilgan donlar mahsus yuzaga yoyib chiqiladi. Donlarning unuvchanligi uchun 18-20 daraja iliq harorat optimal hisoblanadi.

**4-SHO'BA: TUPROQSHUNOSLIK, AGROKIMYO VA TUPROQ BIOGEOKIMYOSINI
O'QITISHNING ZAMONAVIY MUAMMOLARI**

Dastlabki 3 kun qorong'ulikda saqlanadi. 3 kundan keyin maxsus LED chiroqlar yordamida yoritiladi. 5-6 kundan keyin 1 kg dondan 4-5 kg ko'k ozuqa yetishtirish mumkin. Bu jarayonni yil davomida o'tkazish mumkin. Yetishtirilgan ko'k ozuqani chorva hayvonlari qoramol, qo'y-echkilar, parrandalar va quyonlarni oziqlantirish uchun foydalanish mumkin. Bu chorva uchun ozuqa yetishtirishda ortiqcha ko'p mehnat, yer maydoni va ishchi kuchini talab etmaydi. Shu sababli bu usul juda foydali hisoblanadi.



2-rasm. Gidropnika usulida bug'doy donini yetishtirish (1-4 kunda)

Respublikada va Farg'ona viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan chorvachilikka ixtisoslashtirilgan fermer xo'jaliklarida va aholi qo'l ostidagi chorva hayvonlaridan yuqori mahsuldarlikka erishish ko'p jixatdan ozuqa zaxirasining mustaxkamligiga bog'liq. Bunda kuz, qish va bahor mavsumlarida ekin maydonlarida yetarli ozuqabop ekinlar bo'limgan davrda gidropnika texnologiyasi asosida ko'k chorva ozuqasini yetishtirish va chorva hayvonlarining mahsuldarligini oshirish va chorvachilik mahsulotlarini ko'paytirish hamda axolini arzon va sifatlari chorvachilik mahsulotlari bilan ta'minlash hozirgi kunning dolzarb vazifalaridan biri bo'lib qolmoqda. Axoli uchun hozirgi kunda chorva ozuqasi yetishtirish uchun ekin maydonlari deyarli yo'q yoki juda ham kam miqdorda. Bunday sharoitda chorva hayvonlari uchun ozuqasini sotib olish kerak bo'ladi. Shu sababli chorva mahsulotlarining narxi hozirgi kunda ko'tarilib borayotganini ko'rishimiz mumkin. Axoli xonadonlarida chorva bosqicha qarab kichik gidropnika texnologiyasi asosida bug'doy, arpa va boshqa boshqolli ozuqalar donini yetishtirib chorva ozuqa zaxirasini mustaxkamlash mumkin. Buning afzallik jixati shundan iboratki 1 kg dondan 4-5 kg gacha ko'k ozuqa yetishtirish mumkin.



3-rasm. Gidropnika usulida yetishtirilgan ko'k ozuqalar bilan qoramollarni oziqlantirish.

XULOSA

Yetishtirilgan ozuqlarning kimyoviy tarkibida doniga nisbatan oqsil, uglevodlar, makroelementlar va mikroelementlarning yuqoriroq bo'lishini ko'rish mumkin. Bundan tashqari gidropnika usulida yetishtirilgan ko'k ozuqlarning hazmlanishi denga nisbatan osonroq bo'ladi va hazmlanishga ketadigan energiyaning ko'p miqdori mahsulot ishlab chiqarishga sarflanib, mahsuldarlikning oshishiga olib keladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Chorvachilikni yanada rivojlantirish va ozuqa bazasini mustahkamlash chora tadbirlari to'g'risida qarori. 08.02.2022- yildagi PQ-121-soni.
2. Xaydarov Q., Bekmurodov F. Gidropnik usulida tayyorlangan bug'doy maysasini o'strish texnologiyasi va uning kimyoviy tarkibi. Chorvachilik va naslchilik ishi ilmiy amaliy jurnal. Toshkent 2021.

**4-SHO'BA: TUPROQSHUNOSLIK, AGROKIMYO VA TUPROQ BIOGEOKIMYOSINI
O'QITISHNING ZAMONAVIY MUAMMOLARI**

3. Boboyev B., Baxriddinov F., Urokov B. Yuqori samarali gidroponik texnologiyasi asosida chorva ozuqasini ishlab chiqarish uskunalarini va oziqlantirish usullari. Journal of new century innovation.